



Muxiddinova Durdona Odil qizi She'rlari

*Muxiddinova Durdona Odilovna, 2006-yil 29-avgustda Samarqand viloyati ,
Toyloq tumani 'Istiqlol' mahallasida tug'ilgan. Maktabni oltin medal bilan
tugatgan. She'rlari " Samarqand Yoshlari", " Zarafshon" gazetalarida nashr
qilingan. Hozirda Samarqand davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish o'zbek
tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Tiriklik

Tinchlik ne'mati-la quvonchga to'lib
Hayotbaxsh ohanglar olib xayolim,
Kuylay tiriklik nashidin toshib,
Yashash ne asli shudir savolim.

Yerda unib chiqqan gul-u maysami?
Yo ko'kda qushlarning quvna sayrashi?
Balki, g'amgin osmon ko'z yoshi qilib
Yana qayta tinchib, orom topishi?

Ha balki, to'g'ridir javoblar bari,
Lek, tinch etolmadim sira ko'nglimni.
Olib ketar o'ylarim bir tilsim sari
Tutib qololmadim sodda qalbimni.

Odamlar kulishar taajjub zamon
So'roqlayman takror ne deb tiriklik.
Nahotki bilmaysan, javobning aslin
Har tongda uyg'onib, shukur aytishlik.

Biri der dunyoda sayohat qilish,
Olamni kezish-da, yana ne bo'lsin?
Boshqalar-chi --- shukur tanam salomat,
Tinch yurtda hamma ham baxtli yashasin.

Erta tongdan bola shoshar maktabga,
Umid-la ko'zida, sho'x yuragida.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Tiriklik javobi shul emasmi yo,
Odam maqsad bilan yashar dunyoda.

Javoblar tingladim bir-biridan ko'p,
So'ng izladim ma'noning eng sarasin.
Xo'rsindim onamga charchagan bo'lib,
U-chi boshim silab, tutar tizzasin.

Duo qilar-- bolam omon bo'lsin deb,
Yuragim hapqirib oromim topdim.
Onangning bag'rida ruhing tinchlansa,
Tiriklik shul ekan men anglab yetdim.

Meni "men" qilgan otam

Davringizda kerib yuray qaddim,
Yaxshi ham siz bor, qalqonim otam.
Bizni deb hech ham bilmagan tinim
Dunyoda meni „men“ qilgan otam.

Biz uchun duoda, o'zin o'ylamas,
Zahmat-la tolmagan bog'bonim otam.
Umri-chi, hech birin bizdan ayamas,
Dunyoda meni „men“ qilgan otam.

Maqtovlarga serob, mehriyoyim,
Har bir yutug'imdan quvongan otam.
Qoqilsam beminnat maslahatgo'yim
Dunyoda meni „men“ qilgan otam.

Yog'diray boshingiz uzra rahmatlar,
Siz mening faxrim, tojimsiz otam.
Suyar shukr aytib doim onamlar,
Dunyoda meni „men“ qilgan otam.

Umr so'qmoqlari egmasin qaddin,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Farzandi uchun bergandir borin.
Olloh panohida asrasin doim
Dunyoda meni „men“ qilgan otam

Shoirangman...

Osmoningda uchgan qushlar
Dilimdagin yetkazsin deyman.
Yurtim, bilgin aytganda ular
Bag‘ringdagi yosh shoirangman...

Noming ulug‘, bitay dostonlar.
Ezgulik yo‘lida duo qil deyman.
Xalqning tilidan olay rahmatlar
Bag‘ringdagi yosh shoirangman...

Tunlar yo‘qotib bor halovatim,
Mehr ila darrov qalam tutgayman.
Go‘zal tuyg‘ularga to‘lib hayotim
Bag‘ringdagi yosh shoirangman...

Tog‘laringdan ilhomlar olib,
Dalalaring sho‘x kezsam deyman.
O‘zbek tilin dunyoga yoyib,
Bag‘ringdagi yosh shoirangman...